

ANBAR OTIN ASARLARI LEKSIKASI

H.K. Ismoilova

Farg'ona davlat universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalish 1-bosqich talabasi

M.A. Qurbonova

Ilmiy rahbar: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18013632>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining namoyondasi bo'lmish Anbar Otinning asarlarini leksik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoiraning asarlarida qo'llangan so'z boyligi, ularning ma'no qatlamlari, uslubiy xususiyatlari hamda o'z davrining ijtimoiy, madaniy hayotini aks ettiruvchi leksik birliklar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Anbar Otin, leksik tahlil, g'azal, muxammas, so'z boyligi, sinonim so'zlar, g'azal tahlillari.

Annotation. This article provides a lexical analysis of the works of Anbar Otin, a prominent representative of Uzbek classical literature. The study examines the poetess's vocabulary, semantic layers of words, stylistic features, and lexical units that reflect the social and cultural life of her time.

Keywords: Anbar Otin, lexical analysis, ghazal, mukhammas, vocabulary, synonyms, ghazal analysis.

Kirish. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek adabiy hayotida ijtimoiy-ma'rifiy masalalarga faol munosabat bildirgan ijodkor ayolllar orasida **Anbar Otin** alohida o'rin egallaydi. Uning she'rlari nafaqat badiiy jihatdan, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham xalq ongini yuksaltirishga xizmat qilgan. Anbar Otin vorislarining bergan ma'lumotlariga ko'ra, u 1870-yilda Qo'qonda Buzrukxo'ja (hozirgi "Yangi hayot") mahallasida tug'ilgan. Anbar Otin Farmonquli qizi Qo'qonda kambag'al oilada dunyoga kelgan bo'lib, otasi Farmonqul asli Marg'ilonlik bo'lib, shoira Uvaysiyning jiyani edi. Onasi Ashurbibi qo'qonlik bir kosibning qizi bo'lgan.

Anbar Otin 7 yoshidan boshlab o'z mahallasidagi Dilshod Otinning maktabida ta'lim olgan. Navoiy va Uvaysiylarni ustoz deb hisoblagan. 1905-yilda Anbar Otin devon tuzib, unga 41 g'azal, 4 muxammas, bir qit'a, bir mustahzod va she'riy tarjimai holini kiritgan. Anbar Otin-lirik shoira. Uning lirikasida sof sevgi tarannum etiladi. U ayol qalbini, his-tuyg'ularini o'ziga xos kuylovchi shoira. Asarlari: "Mushoira" nomli risola, "Qarolar falsafasi" ("Falsafai siyohon"), "Alifbo", "Ey go'zal Farg'ona, o'zinga kel endi shod qil" va boshqalardan iborat.

Avvalo, leksik tahlil o'zi nima ekanligiga to'xtalib o'tsak.

Leksik tahlil bu so'zning leksik ma'nosi, so'zning material qismi-leksema bildiradigan ma'no, muayyan tovushlar majmuini ma'lum obyektiv voqelikka bog'lash bilan kishi ongida yuzaga keladigan mazmun-mudarija; lug'aviy ma'no hisoblanadi.

Sinonim so'zlar bu shakli har xil, lekin ma'nosi bir xil so'zlar sinonim so'zlar deyiladi.

Sinonim so'zlar bir ma'noni ifodalab kelib, nutqni boyitadi va so'zlarning takrorlanishini oldini oladi. Har bir so'zning sinonimi har doim ham hamma joyda ishlatilavermaydi- uslubiy farq bo'lishi mumkin. Shunday ekan sinonim so'zlar lug'aviy ma'nolarni ham ko'paytishga xizmat qiladi. Masalan, shoiraning ushbu g'azalidan tahlil qilishimiz mumkin:

Jahon og'uga kelgan Anbar Otinman,

G'amu-qayg'uga kelgan Anbar Otinman.

Ushbu satrlarda keltirilgan „Og‘u“-so‘zi, „G‘amu-qayg‘u“ so‘zlariga o‘zaro sinonim bo‘lib, barchasi ruhiy og‘riq va iztirob ma‘nolarini anglatadi. Bu g‘azalda „og‘u“ so‘zining uzviy bog‘liqligi shundaki, bu so‘z zahar, azob, dard ma‘nosida qo‘llangan.

Bu yerda u majoziy ma‘noda qo‘llangan: hayotning qiyinchiliklari, sinovlari sifatida ifodalangan.

Yana bir misraga to‘xtalib o‘tamiz:

Xirad eliga kuksin tutdi qog‘oz,

Ham irfon ishqida qon yutdi qog‘oz.

Ushbu satrlar fikr va his tuyg‘ulari bir qog‘ozu unga to‘kilgan ishq she‘r qilib yozilganda, nafaqat yozuvchi tasirlangaani, balki qog‘oz ham iztirob chekkani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xirad — donolik, aql, tafakkur. **Irfon** — bilim, ma‘rifat.

Ishq — sevgi, muhabbat, qalbning olov. **Qog‘oz** — varaq, daftar varaqlari, hujjat. **Kuksin tutdi** — (bu ibora biroz she‘riy, ya‘ni “o‘z qo‘liga oldi” yoki “qo‘lga kiritdi” ma‘nosida). **Qon yutdi** — qiyinchiliklarga duch keldi, azob chekdi. Mana shu misralardan ham Anbar Otinning g‘azallaridagi so‘z boyligini qay darajada ekanligini yaqqol sezish mumkin.

Muhammas — besh misradan iborat baytdan tashkil topgan she‘r. Har bir bayt besh misradan iborat bo‘lib, oxirgi misralarida ma‘lum qoidaga ko‘ra takrorlanadigan qism (radif) bo‘ladi.

Muhammasning asosiy xususiyatlari:

Har bir bayt besh misradan iborat. Har bir baytda oxirgi ikki yoki uch misra takrorlanadi, bu takrorlanadigan qismga radif deyiladi. Radif orqali she‘rga ohangdorlik va bir xillik beriladi. Muhammad ko‘pincha doston yoki g‘azal kabi janrlarda ishlatiladi.

Ulg‘ayursan sanda bor bo‘lsa adab

Ulg‘ayursan sanga yer ulsa adab,

Odam ersang tashqi suratga berma zeb,

Ona yurtning hamisha ayla zeb.

Yuqoridagi misrada keltirilgan: **Ulg‘ayursan sanda bor bo‘lsa adab"**

— Sen ulg‘aysang, avvalo, axloq, odob bo‘lsin. Ya‘ni, odam bo‘lish uchun bilim

va odobning muhimligi haqida aytmoqchi bo‘lgan. Bu yerda “adab” so‘ziga –odob, axloq so‘zlari sinonim bo‘la oladi. “Zeb” so‘zi esa –chiroy, go‘zallik kabi so‘zlar sinonim bo‘lib qo‘llanila oladi. Bu misralar orqali shoira vatanparvarlik, insoniylik tuyg‘ulari yuksalishiga bevosita hissa qo‘shmoqda.

Xulosa qilib shuni shuni aytishim mumkinki:

Anbar Otinning asarlari o‘zbek adabiyotining muhim qismi hisoblanadi. Anbar Otinning leksikasi orqali o‘zbek tilining boy va rang-barang imkoniyatlari ko‘rsatilib, milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirishga katta hissa qo‘shilgan. Shu bois, uning asarlarini o‘rganish va tahlil qilish nafaqat tilshunoslik, balki madaniy merosni chuqur anglashda ham muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Imlar.uz.
2. Anbar Otin she‘rlari risola. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent-1970.